

Показатели площади липидных пятен в коронарных артериях у коренного и некоренного населения в возрастном аспекте без особенностей.

Площадь фиброзных бляшек в возрасте до 40 лет в грудной аорте и брюшной аорте у коренного и некоренного населения существенно не отличалась, но после 40 лет площадь фиброзных бляшек в грудной и брюшной аорте у лиц НКН была существенно большей, чем у коренного населения. Разница в показателях стандартизованных по возрасту (20-59 лет) площади фиброзных бляшек между контрольной группой и умерших от ССЗ следующая: у КН – в грудной аорте площадь фиброзных бляшек в 3,7 раза превышает у умерших от ССЗ в сравнении с контролем, в брюшной аорте – соответственно в 3,4 раза, у НКН. Эти показатели превышали соответственно в 2,4 раза и в 2,2 раза, то есть различия были больше у КН, чем у НКН. [4]

Данные о площади фиброзных бляшек в коронарных артериях, свидетельствуют о том, что у НКН фиброзные бляшки превышают у коренного населения, за исключением 50-59

лет в правой коронарной артерии, 30-39 лет в нисходящей коронарной артерии.

Стандартизованные по возрасту (20-59 лет) показатели площади фиброзных бляшек, осложнённых поражений, и кальциноза (ВП-возвышающие поражения) в коронарных артериях не велики.

Выводы. Таким образом: 1) атеросклероз аорты и коронарных артерий у НКН выражен более значительно, чем у КН, что выражается большей площадью атеросклеротических изменений и более ранним появлением его в сравнении с контрольной группой. 2) степень выраженности атеросклероза аорты и коронарных артерий у НКН более значительна по сравнению с КН. Эти различия наиболее выражены у лиц старше 40 лет, в молодом возрасте различия между сравниваемыми группами незначительны. 3) более высокая степень поражения атеросклерозом аорты и коронарных артерий наблюдалась при сердечно-сосудистых заболеваниях, чем у практически здоровых лиц.

Литература

1. Автандилов Г.Г. Динамика атеросклеротического процесса у человека. -М.: «Медицина», 1970, -С.208.
2. Вихерт А.М. и др. Географическая патология атеросклероза. -М.: «Медицина», 1981.-С. 208.
3. Бедрин Л.М. и др. Судебно-медицинская диагностика скоропостижной смерти от ИБС. -Горький: 1975, -С.160.
4. Марцинкус Р.Р. Некоторые вопросы эпидемиологии ИБС. Диссертация. -Каунас: 1971.
5. Жданов В.С. О влиянии некоторых заболеваний на развитие атеросклеротических изменений в аорте и коронарных артериях сердца. Диссертация. -Москва: 1969.
6. Лифшиц А.М. Многомерная характеристика связей атеросклероза коронарных артерий с фактором риска ИБС. Диссертация. -Москва: 1986.
7. Вали М.И. Влияние некоторых факторов риска на развитие атеросклероза у практически здоровых мужчин и у умерших от острой коронарной недостаточности. Диссертация. -Москва: 1989.

Маълумки, кейинги йилларда аҳоли ўртасида ЮИК (юрак ишемик касаллиги) билан оғриш ва ўлим ҳолатлари нафақат кўпайди, балки анча яшарди. Атеросклероз туфайли келиб чиқувчи юрак қон томир касалликлари профилактикаси илмий асосларини ўрганиш замонавий медицинанинг муҳим вазифаларидан бири бўлиб ҳисобланади.

Известно, что за последние годы заболеваемость и смертность населения от различных форм ишемической болезни сердца (ИБС) не только возросла, но имеет явное «омоложение». Одной из ведущих мест в этой проблеме занимает атеросклероз, с его тяжёлыми кардиальными проявлениями. Изучение научных основ профилактики заболеваний сердечно-сосудистой системы, возникающих на фоне атеросклероза является одним из актуальных задач современной медицины.

It is known that for the last years the number of people suffering from cardiac ischemic disease and those who die of it not only increased, but the incidence of this disease also became common for young population. One of the most important tasks of modern medicine is the study of the scientific basis of prophylactics of cardiovascular diseases due to atherosclerosis.

“SOG‘LOM AVLOD UCHUN” DAVLAT SIYOSATI-SALOMATLIK ASOSI

B.Mattiyev - mustaqil ilmiy tadqiqotchi
Samarqand davlat chet tillar instituti

Tavanch so‘zlar: sog‘lom va barkamol avlod, bosqichma-bosqich, rejalashtirilgan, maqsadli va manzilli davlat siyosati, sog‘lom turmush tafakkuri va madaniyati, ijtimoiy-siyosiy omillar.

Ключевые слова: здоровое и гармонично развитое поколение, эволюционный, спланированный, целенаправленный, адресная государственная политика, мышление и культура, направленные на здравоохранение, социально-политические факторы.

Key words: a healthy and harmoniously developed generation, evolutionary, planned, purposeful, targeted state policy, thinking and culture directed to health care, social and political factors.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng amalga oshirilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma‘naviy-mafkuraviy islohotlar jarayonining, xususan, mamlakat ta‘lim tizimidagi islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish vazifasi belgilandi. Mamlakatimizda sog‘lomlik aqidalari, sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom turmush madaniyatini keng aholi qatlamlari tafakkurida shakllantirish va fuqarolar salomatligini muhofaza qilish masalalari eng dolzarb davlat ahamiyatiga molik vazifa ekanligi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlaganidek, «Biz mustaqilligimizning ilk yillaridan oq sog‘lom avlod tarbiyasini eng ustuvor vazifa deb belgiladik. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tardik» [1].

Mustaqillik yillari davomida mamlakatimizda sog‘lom avlod g‘oyasi asosidagi davlat siyosati bosqichma-bosqich rejalashtirilgan, maqsadli va manzilli tarzda amalga oshirildi. Uning amalga oshirilishi jarayoni muntazam moddiy, moliyaviy hamda eng ilg‘or moddiy-texnik baza bilan ta‘minlandi. Sog‘lom avlod g‘oyasi o‘z mazmuniga: yangidan barpo etilayotgan demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida inson qadriyatlarini ustuvor anglash; millat genofondini sog‘lom saqlash va e‘zozlash; sog‘lom avlod g‘oyasini targ‘ib va tashviq qilish; uning amalda joriy etilishi uchun moddiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, tibbiy va pedagogik omillarni va shart-sharoitlarni ta‘minlash; o‘zib kelayotgan avlodni sog‘lom tafakkur egasiga aylantirish uchun, uning sog‘lom turmush tarzi asosida hayot kechirishiga zamin tayyorlash uchun mamlakat miqyosida sog‘lomlashtirish infrastrukturasi (tibbiy, ijtimoiy, sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport) yaratish; inson omilini tibbiy, ekologik, mafkuraviy, informatsion huruj va tahdidlardan muhofaza qilish tizimini tashkil qilish; jismoniy tarbiya va sportni yoshlar salomatligini mustahkamlash tizimi sifatida qarash hamda mamlakatning har bir hududida uning keng tarmoqlangan infrastrukturasi yaratish kabi maallarni qamrab oldi.

2005 yil O‘zbekistonda “Sihat-salomatlik yili” deb ataldi. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning “Sog‘lom xalq, sog‘lom

millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi” ma‘ruzasidagi g‘oya va qarashlar keng targ‘ib va tashviq qilindi. Vazirlar Mahkamasining maxsus davlat dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur davlat dasturi 8 bo‘lim, 107 chora-tadbirlardan iborat bo‘lib, uning maxsus modda va ruknlari yoshlar salomatligini muhofaza qilish masalalariga bag‘ishlandi. Turli zararli odatlar, jumladan, giyohvandlik, chekish, spirtli ichimliklar iste‘mol qilish, yuqumli tanosil kasalliklari, OITS tarqalishiga qarshi faoliyatni aniq rejalashtirilgan tadbirlar asosida olib borilishi zarurligi ta‘kidlandi. “Sihat-salomatlik yili» munosabati bilan sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, sport turlarini rivojlantirish va aholi o‘rtasida ommaviylashtirish, jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalash, aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish maqsadlariga keng qamrovli ishlar amalga oshirildi [2].

Mustaqillik yillarida izchil tarzda aholi salomatligini ta‘minlash masalasi ustuvor vazifa sifatida qaraldi. Har bir viloyat va qishloqlarda aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rildi. Xususan, Surxondaryo viloyatida “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonun normalari talablarini hamda sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat dasturlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlar ijrosiga alohida e‘tibor qaratildi. Chunonchi, 2 million 114 ming kishilik nufusga ega viloyatda hozirgi kunda qishloq vrachlik punktlari soni 243 taga yetgan. Bu 2002 yildagiga qaraganda ikki baravar ko‘pdir. Viloyatda 68 ta shifoxona, 67 ta ambulatoriya-poliklinika, 16 ta davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatib kelayotir. O‘tgan yili viloyat ambulatoriya-poliklinika tarmog‘i muassasalarida 1,5 million kishidan ortiq, jumladan, salkam bir million nafar qishloq aholisi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan.

Bizning fikrimizga ko‘ra, salomatlikni asrashga yo‘naltirilgan tafakkurni yoshlarda shakllantirishning o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy omillari mavjud. Ular:

(1) Jamiyatda sog‘lom turmush tarzi va sog‘lom turmush madaniyatining o‘rnatilishi bevosita sog‘lom turmush tafakkuri va madaniyatiga ega bo‘lgan, o‘z va jamiyat salomatligiga faol munosabat ko‘rsata oladigan insonlarga bo‘lgan talabni vujudga

keltiradi. Sog'lom turmush tafakkuri va madaniyatiga ega bo'lgan insonlar, fuqarolar zahirasi esa eng avvalo ta'lim tizimi shakllantirishi lozim. Shu bois, mamlakatda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarning bosh maqsadi har tomonlama barkamol, yetuk shaxslarni shakllantirishga qaratildi. Shu bilan birga milliy pedagogikada erishilgan barcha mavjud yutuqlarni yanada mustahkamlash hamda ta'lim tizimida innovatsion pedagogik omillarni kuchaytirish maqsadida yangi, innovatsion tarzda rivojlanib kelayotgan pedagogik texnologiyalardan salomatlikni asrashga yo'naltirilgan ("здоровоберегающая") pedagogikani rivojlantirish taqozo etilmoqda. Chunki inson salomatligini asrashga yo'naltirilgan tafakkur o'z-o'zidan shakllana olmaydi. Mazkur tafakkurni shakllantirishning shakl, vosita, usul va yo'llarini, uning amal qilishi jarayonining xususiyatlarini, uning omillari va pedagogik maqsadni o'zida yaxlit tizim sifatida mujassam etgan maqsadli pedagogik texnologiya taqozo etiladi.

(2) Bugungi kunda dunyo miqyosida nazariy pedagogika tarkibida salomatlikni asrashga qaratilgan maxsus yo'nalish jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur yo'nalish o'z mazmuniga salomatlik mezonlari va qadriyatlarini, sog'lom turmush tarzi qonuniyatlari, sog'lom tafakkur va ong masalalarini, inson salomatligiga tahdid soluvchi shart-sharoitlar, vosita, usul va yo'llarini, ularning salbiy oqibatlarini, shuningdek sog'lom turmush madaniyati tartiblarini mujassam etib, qamrab oladi. Ammo yuqorida ta'kidlangan barcha tushunchalardan salomatlikni asrashga yo'naltirilgan pedagogikaning bosh farqi shundaki, unda bevosita insonni o'zi va atrofidaqilar salomatligini asrash uchun qanday qilib, qay tarzda, qanday bilim, ko'nikma va malakalarga tayinib amaliy faoliyat ko'rsatish zarur degan masalaga o'rgatadi. Chunki agar insonning o'zini o'z salomatligini asrashga yo'naltirilgan tafakkurini uzviylik va uzluksizlikda shakllantirmasak, salomatlik infrastrukturallari yaratilganligi bilan biz pedagogik maqsadga yaqinlashmaymiz.

Inson salomatligini asrashning eng qisqa va samarali yo'li – mana shu insonni o'zining va atrofidaqilar salomatligini asrashga yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirishdir. Demak, salomatlikni asrashga yo'naltirilgan pedagogika salomatlik borasidagi shakllanib bo'lgan tafakkur, ong, madaniyatni sog'lom turmush tarziga aylantirish mexanizmi hisoblanadi. Salomatlikni asrash talabi esa avvalo iqtisodiy rivoj va takomil, aholi sonining keskin o'sishi, texnologiyalar inqiloblar, ekologik xavfsizlik sharoitida hamda turli ximik anjomlarning kundalik hayotga keng kirib borayotgan davrida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda salomatlikni asrashga yo'naltirilgan sayi-harakatlar tizimi va amaliyotini bilmasdan turib, inson o'z salomatligining posboni bo'la olmaydi.

(3) Demak, jamiyat oldiga ijro uchun qo'yilgan davlat ahamiyatiga molik ustuvor vazifalardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodning o'z va atrofidaqilar salomatligini asrashga yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirish vazifasidir. Farzand yoshligidanoq qadriyat sifatida anglab olishi zarur bo'lgan aqida shundaki, "Agar men o'z salomatligimni asrasam – butun jamiyat sog'lom bo'ladi, agar butun jamiyat o'z salomatligini asrash yo'lidanoq borsa, mening salomatligim hamda hayotimga ham tahdidlar bo'lmaydi" qonuniyatidir. Mazkur vazifani amalga oshirish va uni hayotga joriy etishning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va boshqa omillari qatorida pedagogik omillari ham mavjud bo'lib, ular sirasiga salomatlikni asrashga yo'naltirilgan tafakkurni shakllantirishning zamonaviy, innovatsion, interfaol usullar asosidagi, yoshlarga mos va samarali metodlari, shakllari, vositalarini ishlab chiqish hamda ularni ta'lim dargohlariga ijro etish uchun tavsiya etish masalasidir. Mazkur masala bugungi pedagogikada o'z yechimini kutib turgan dolzarb muammolardan sanalanadi.

(4) Biznes va xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassislari o'z faoliyatlarini mustaqil olib borish jarayonida atrof-muhit

xavfsizligiga, bevosita inson salomatligiga ijobiy, salbiy va yoki o'ta salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Chunki kichik va o'rta biznes, xizmat ko'rsatish sohalari mutaxassislari oshxonalar faoliyatini tashkil qilish, oziq-ovqat ishlab chiqarish, sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, kiyim kechak, tola, mato ishlab chiqarish va kiyim-bosh tikish, savdo-sotiq kabi mehnat turlari bilan shug'ullanadi. Mana shu jarayonda biznes va xizmat ko'rsatish mutaxassislardan na faqat o'zlarining salomatliklarini asrashga yo'naltirilgan anglangan faoliyat, balki ularning biznes mahsuloti va xizmat ko'rsatishidan foydalanayotgan insonlar salomatligini asrashga yo'naltirilgan tafakkur va faoliyat taqozo etiladi. Demak, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari mutaxassislari salomatlikni asrashga yo'naltirilgan tafakkur shakllantirilsa, butun jamiyatda salomatlikni asrash muhitini shakllantirish imkoniyati yaratilgan bo'ladi. Mazkur masala, ayniqsa ba'zi chet davlatlardan kontrabanda usuli bilan mamlakatimizga olib kirilayotgan hamda inson salomatligiga o'ta zararli farmaldegid, fenol zararli moddalariga to'la bo'lgan mahsulotlar savdo-sotiq tizimiga chiqib ketayotgan davrda yanada muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Mazkur dolzarb pedagogik muammoning ilmiy-nazariy anglanishi va pedagogik tajribadan o'tkazilishining o'ziga xos pedagogik shart-sharoitlari ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida sog'lom avlod tarbiyasi va sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish davlat ahamiyatiga molik vazifalardan biri sifatida e'tirof etilganligi bois, mazkur vazifani amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoit pishib yetilgan va kulay hisoblanadi. Davlat mana shunday ishlarni amalga oshirilishidan manfaatdor bo'g'in hisoblanadi, shu bois, mazkur masalaning ilmiy-nazariy o'rganilishi va hayotga tatbiq etilishida muammolar mavjud bo'lmaydi. Chunki sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish masalasi davlat ahamiyatiga molik vazifalardan o'rin oladi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda o'tkazilgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" kabi sport va jismoniy tarbiyani rag'batlantirish faoliyati hamda o'quvchilar ichida sport bilan shug'ullanishga rag'batlantirish faoliyati mamlakatning turli hududlarida maxsus yoshlar uchun tashkil qilingan va qurilgan sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish uchun zarur sport va jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish infrastrukturallarning mavjudligidan dalolat beradi. Demak, pedagogik faoliyatning bugungi dolzarb vazifalaridan biri mana shu mavjud infrastruktura imkoniyatlarini talaba-yoshlarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish va uning zamonaviy interfaol usullarini ishlab chiqish uchun ishlatishdir.

Uchinchidan, bugungi kunda talaba-yoshlarning o'zida salomatlik va sog'lom turmush madaniyati, sog'lom turmush tarzi bo'yicha ma'lum fikrlar, qarashlar va tafakkur mavjud bo'lib, ularning mavjudligi talaba-yoshlarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish uchun qulay ijtimoiy-psixologik va pedagogik shart-sharoitning yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Demak, yoshlarning o'zini mana shu faoliyatni to'g'ri va ularning talablari darajasida amalga oshirish uchun yoshlarning o'zini zarur interfaol usullar bilan qurollantirish zarur bo'ladi.

Binobarin, pedagogikada ma'lum umummushtarak jihatlarning mavjudligi barobarida, mazkur umumshaxsiy maqsadlarni amalga joriy etishning o'ziga xos milliy xususiyatlari ham mavjud bo'ladi. Shu bois, har bir mamlakatda u yoki bu pedagogik metod, shakl, uslub va vositalarning o'ziga xos milliy qirralari va shart-sharoitlarini aniq belgilash, ularni inobatga olish zarur bo'ladi. Mana shunday, bir tomondan dunyoviy ahamiyatga molik bo'lgan, ikkinchi tomondan milliy shart-sharoitda tatbiq etilishining o'ziga xos tomonlarining ishlanishini talab etgan pedagogik muammolardan biri talaba-yoshlarda, xususan biznes va xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassislari salomatlikni asrashga yo'naltirilgan tafakkurni shakllantirish masalasidir.

Adabiyotlar

1. Karimov I. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. «Xalq so'zi» gazetasi, 1999-yil. 8-dekabr.
2. Nishonova S. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda uzviylik. // Uzluksiz ta'lim. 2007, 6-son, 77-83-b.
3. Musurmonova O., Abdurahimova F.Y. Mahallada qizlarning sog'lom turmush tarzi. -T.: «O'zbekiston», 2007. 168-6.
4. Abdurahimova F.Y. Mahallada qizlarni sog'lom turmush tarsi asosida oilaga tayyorlashning pedagogik asoslari. Ped.f.n... diss. avtoreferati. -T.: 2007.
5. Risqulova K.J. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishda nodavlat tashkilotlari hamkorligi. Ped.f.n.diss. avt. -T.: 2010. 27-b.
6. Jamoldinova O.R. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fen dokt....diss. avtor. -Toshkent: 2015, 86-b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada sog'lom va barkamol avlodni vovaga vetkazish borasida vurtimizda amalga oshirilayotgan davlat sivosati haqida so'z vuritilgan hamda mamlakatimizda mustaqillik villarida bu sohada erishilgan vutuqlar keltirib o'tilgan. Sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda davlat oldida eng muhim vazifa – yosh avlodda sog'lom turmush tarzi tafakkurini shakllantirishga to'xtalib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье говорится о государственной политике, проводимой в сфере воспитания здорового и гармонично развитого поколения и достижениях достигнутых в этой сфере. А так же рассматриваются главные задачи государства при воспитании здорового и гармонично развитого поколения, формирование у молодого поколения мышления, направленного на здоровый образ жизни.

SUMMARY

The article describes the state policy in the sphere of raising healthy and harmoniously developed generation and achievements made in this sphere. The author regarded the main tasks of the state in raising healthy and harmoniously developed generation, the formation of thinking aimed at a healthy lifestyle in the young generation